

CHET TILI FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK METODLAR TURLARI VA  
UNI DARSDA QO'LLASH USULLARI

Marufova Umida Utkirovna

*Samarqand viloyati Jomboy tumani 7-IDUM ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada chet tili fanini o'qitishda yangi pedagogik metodlar turlari va uni darsda qo'llash usullari hamda metodlardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyati xususida so'z yuritiladi. Shuningdiki, bu metodlar o'zga tilni o'quvchilarning puxta o'zlashtirishida, o'sha tilda bemalol so'zlay olishida qo'l kelishi haqida ham alohida ma'lumtlar keltirib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *metod, Ingliz tili, samara, ta'lim, o'quvchi, chet tili, AKT.*

**Аннотация:** *В статье говорится о видах новых педагогических методов в обучении иностранному языку и способах их применения на уроке, а также о практической значимости эффективного использования методов. Кроме того, дается специальная информация о том, что эти методы полезны для глубокого овладения учащимися иностранным языком и способности легко говорить на этом языке.*

**Ключевые слова:** *метод, английский язык, эффективность, обучение, студент, иностранный язык, ИКТ.*

**Abstract:** *The article talks about the types of new pedagogical methods in teaching a foreign language and the methods of its application in the lesson, as well as the practical importance of effective use of methods. In addition, special information is given about the fact that these methods are useful for the students' thorough mastery of a foreign language and the ability to speak that language easily.*

**Key words:** *method, English, efficiency, education, student, foreign language, ICT.*

### KIRISH

Hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri xorijiy tillarni o'qitish orqali yosh avlodni ona-Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g'urur, yuksak axloq va ma'naviyat, qadimiy va boy merosimizga iftixor tuyg'usi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir. Jahon ta'lim tizimidagi tub islohotlar talabalarning chet tillarni mukammal o'rganishlari, barcha sohalarda chet tilini bilgan holda o'zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart- sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda. Ta'lim oluvchilarning chet tilida fikr yuritish, erkin nutqni amalga oshira olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual faoliyatini shakllantirish, ularning tayyorgarligini baholash masalalari bilan YUNESKO, YUNISEF, Yevropa Universitetlari Assotsiyatsiyasi, Oliy Ta'lim Sifatini Ta'minlash Yevropa Tarmog'i kabi tashkilotlar shug'ullanmoqda. Bu masalaning umumiy tendensiyalarda rivojlanishi zamonaviylik va yosh avlodda chet tiliga oid

malakalarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, zamonaviy tarbiya muammolari bilan bog'liq holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirish oliy pedagogic ta'lim tizimini takomillashtirishga asos bo'ldi. O'zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Shu bois respublikamiz oliy ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarni ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish jarayonida mutaxassislik bo'yicha original adabiyotni o'qish, xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida chet tili darslari o'tilmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Har bir mustaqil O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z kasbiga oid chet tilidagi adabiyotlarning asl nusxasini o'qiy olishi, o'qilgan matnni tushunishi va uni o'z kasbida qo'llay olishi lozim. Bundan tashqari, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak. Zero, chet tillarini o'rganish bugungi globallashtirish davr talabidir.

Yurtimizda ham mustaqillik sharofati bilan chet tillar o'qitilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Minglab chet tili o'qituvchilari tayyorlanganligi, kadrlarning ona vatanimizda va xorijda malaka oshirishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilganligi, ingliz, nemis, fransuz tillari bo'yicha multimediyalar darsliklari, ingliz tilini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlanganligi, ta'lim muassasalarida zamonaviy lingafon xonalarining tashkil etilganligibuning yaqqol isbotidir. Yosh avlodni chet tillarda o'qitish hamda shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish negizida, yoshlarning jahon tamadduni yutuqlari hamda butun dunyo axborot resurslaridan foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Mashhur nemis olimi Y.V. fon Gyote aytganidek: "Kim chet tillarini bilmasa, u o'z tilini ham bilmaydi". Shu sababdan nafaqat chet tili mutaxassislari, balki tilga ixtisoslashmagan oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha bo'lajak kadrlar chet tillarini o'rganib, ularda erkin fikr almasha olish g'oyat muhim vazifalardan sanaladi. Xalqimizda ham bir maqol bor: "Til bilgan el biladi". Haqiqatdan ham, xorijiy tilni bilgan kishi ko'p tomonlama imkoniyat va ustunliklarga ega bo'ladi. Bugungi kunda kadrlar oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri chet tillarini mukammal bilishdir.

Barcha sohalarda mutaxassislarni tayyorlash jarayonlarida ta'lim tizimi ustuvorligini, jumladan, chet tillarini o'qitishning yangi texnologiya- mexanizmlarini joriy etishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqlar o'rtasidagi aloqa, ma'naviy va boshqa muloqotlar til orqali namoyon bo'ladi.

Dunyoda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tillarni o'rgatish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borilmoqda: Umumyevropa CEFR talablari asosida talabalarga chet tillarni o'rgatishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish; o'qitish mazmuni, ta'lim texnologiyalari, nazorat obyektivligini kuchaytirish, auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tashkil qilish.

Chet tilini o'qitish maqsadlari jamiyat talabi, ijtimoiy buyurtmasi, sharoiti, siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Chet tili o'qitish maqsadlari jamiyat taraqqiyotigava rivojlanishiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish o'z maqsadlariga ega, chet tilidan ta'lim berayotgan barcha murabbiylar, albatta, uni oldindan aniqlab olmog'i darkor. Zero, olimlar O'.Hoshimov va I.Yoqubov "Ingliz tili o'qitish metodikasi" kitobida aytganidek, 'chet tili o'qitish maqsadlari o'qitish mazmunini, vositasini, metodlarini, tamoyillarini aniqlaydi". Oliy o'quv yurtlarida ingliz tili o'rgatishni maqsad va vazifalari hisobga olingan holda, ularni 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Chet tili –ingliz tili bo'yicha mutaxassis tayyorlovchi universitet, institut, fakultetlar.

2. Chet tili- ingliz tili bo'yicha mutaxassis tayyorlamaydigan nofilologik ta'lim muassasalari.

Bu 2 guruhda ingliz tili o'qitish maqsadlari turlicha bo'lib, birinchi guruhdagi oliy o'quv yurtlarida ingliz tilidan mutaxassis tayyorlanishi sababli ingliz tili chuqur har tomonlama mukammal, ham nazariy, ham amaliy o'rgatiladi. Ikkinchi guruhdagi, ya'ni nofilologik ta'lim muassasalarida esa ingliz tili bo'yicha kompleks maqsad ko'zda tutiladi. Talaba ingliz tilidan umumta'lim olib, yana mutaxassisligi bo'yicha ingliz tilini kelajakda o'z ish faoliyatida qo'llashga o'rgatish maqsadi yotadi. Kasbi bo'yicha qisman muloqot qilish, mutaxassisligiga oid so'zlarni o'rganib, matnlarni o'qib tarjima qilishga o'rgatiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida chet tillar o'qitish o'z oldiga

1) amaliy yoki kommunikativ,

2) umumta'lim berish,

3) tarbiyalash,

4) hosil qilingan malaka va ko'nikmalarni boshqa maqsadlarda ishlatilishni, ya'ni rivojlantirish maqsadlarini qo'yadi. Umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar kommunikativ maqsadni amalga oshirishda sodir bo'ladi. Bu 4 ta maqsadlarni kengroq ko'rib chiqamiz:

1. Kommunikativ (amaliy) maqsad: Bu maqsad orqali talabalarda ingliz tili materiallari bo'yicha malaka, ko'nikma hosil qilinadi. Talabalar leksik, grammatik talaffuz materiallarini nutqda o'zlari mustaqil qo'llay olishlari kerak. Inglizcha og'zaki nutq, o'qish, yozuv ko'nikmalari hosil qilinadi.

2. Umumta'limiy maqsadi: Bu maqsad orqali o'quvchilarning tafakkurini yanada o'stirish, ingliz tilidan ma'lumot olish va berish, ingliz tilini yanada chuqurroq anglab olish, ingliz tili haqidagi yangi bilimlar hamda tili o'rganilayotgan mamlakat xalqining tarixi, adabiyoti va madaniyati haqida tushuncha va ma'lumotlar olish hisobiga talaba o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish tushuniladi. Talabalarning anglash, fikrlashini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish chet tili hisobiga yoki ingliz tilida bo'ladi.

3. Tarbiyaviy maqsad: Bu maqsad chet tili — ingliz tili darsida baynalminal, axloq va estetik tarbiya berish hamda mehnatga munosabatini tarbiyalashni ko'zda tutadi. Albatta, bular ingliz tili — materiallari orqali inglizcha nutq mavzusini, inglizcha matnlar mazmunini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

4. Rivojlantiruvchi maqsad: Bu maqsad o'quvchi, talabalarni shaxsan bilish o'rganish, o'rgatish yo'l-yo'riqlarini belgilab beradi. U til faktlarini tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish, tinglash, nutq, harakat malakalarini rivojlantiradi. U tasavvur qilish, nutq vaziyatini tuzish orqali o'rgatishni, nutqda mantiqiy bog'liqlik bo'lishini, mustaqil fikr qila olishni, so'zlar ma'nosini fahmlab topishni, lug'at, qo'llanmalar bilan mustaqil ishlashni hamda fakultativ mashg'ulotlarga, sinfdan tashqari ishlarga mustaqil tayyorlanishni, ularni o'tkazishni rivojlantiradi. Yuqoridagi to'rtga maqsad doimo bir-birini to'ldirib turadi, bir-biri bilan aloqada bo'ladi. Har bir darsda o'rgatiladigan, qaytariladigan inglizcha til materiallari, nutq faoliyatlari orqali shu to'rtta maqsadlar amalga oshirilishi kerak.

Talabalar oliy ta'lim muassasasini tugatayotganlarida inglizcha fikrni og'zaki, yozma qabul qila olishi, tushunaolishi va og'zaki, yozma ravishda bayon qila olishi talabqilinadi. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida dars soatlarining soni shu muassasalarga oid dasturlarda beriladi. Nofilologik ta'lim muassasalarda chet tillari maxsus dastur vadarsliklar asosida o'qitiladi. Bunday ingliz tili maxsus nofilologik ta'lim muassasalarimiz uchun hali dastur va darsliklarishlab chiqilmaganligi uchun o'zbek tilida o'qitiladigan bunday ta'lim muassasalarida o'qituvchilar o'zlari yo'nalishning xususiyatinihisobga olib, turli xil darsliklar, qo'llanmalarni tanlab foydalanmoqdalar.

O'qitish mazmuni metodikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi davrda tillarga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalarida chet tili o'qitishmazmuni deganda: talabalar oladigan tarbiyaning maqsad va vazifalari bilan aniqlanadigan bilimlar, materiallar, mashqlar va ko'nikmalar xususiyatihatda hajmi tushuniladi. O'quv predmetning mazmunini belgilashda asosan 2 ta umumiy talabni va ularning bir-biriga bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak:

1) tanlangan o'qitish mazmunini oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishish yoki erisha olmasligimiz talabi;

2) shu bizning aniq, sharoitimizda tanlangano'qitish mazmunining talabalar tomonidan o'zlashtirish yoki o'zlashtira olmaslik talabi. Bu 2 tatalabni hisobga olib chet tili o'qitish predmetining mazmunini belgilash mumkin. Oliy ta'lim chet tillar dasturi

loyihasida ingliztili o'qitish mazmuni belgilab ko'rsatiladi. Har bir chet tili o'qituvchisi o'z ishini shu dastur asosida tashkil qilishga majburdir. O'.Hoshimov va I.Yoqubov hozirgi davrda chet tilini o'qitish metodikasi predmetining mazmuniga quyidagilarni kiritadi.

1. Mavzu: (tematika) og'zaki nutq va o'qish mavzulari.
2. Til materiallari (fonetika, leksika, grammatika.)
3. Leksik, grammatik, orfografik, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish;
4. Nutq malakalari (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv malakalari)ini shakllantirish, o'rgatish, o'stirish.
5. Ingliz tilining ustida ishlaganda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini o'rgatish.

Mavzuga asosan matnlar tanlanadi. Nutq malakalarini, faoliyatini egallash chet tili o'qitish amaliy maqsadining mazmunidir. Chet tili o'qitish mazmuni chet tilidan nimalarniva nimalarga o'rgatish savollariga javob beradi.

Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasasi uchun chet tillari (ingliz, nemis, fransuz) bo'yicha til materiallari tanlab olingan. To'g'ri tanlangan mazmun maqsadga erishishda katta yordam beradi. Mazmuni tanlashda o'qitish maqsadi hisobga olinadi hamda u yetakchilik qiladi. Mazmun tanlanganda til materiallari bilan birga nutq namunalari ham tanlanadi. Ular nutqni urgatishda asos bo'ladi. Mazmuni tanlashda o'qitish, o'rgatishni metodik tashkil qilish hisobga olinadi. O'qitish mazmuni, o'qitishning shart-sharoiti bilan bog'liqdir. Chet tili o'qitish maqsadi o'qitish mazmunining hajmiga ham ta'sir etadi. Hozirgi davrda chet tili o'qitishni tubdan o'zgartirishni ko'zda tutadi. Uning quyidagi 3 ta talabi bor.

1. Chet tili o'qitish ilmiy saviyasini va amaliyyo'nalishda bo'lishini oshirish;
2. Chet tili predmetining tarbiyaviy tomonini kuchaytirish;
3. Chet tili o'quv predmetini mustaqil egallash.

Birinchi talab 2 xil yo'l bilan amalga oshirilish mumkin.

1-yo'l. O'qitish mazmunini o'zgartirish.

2-yo'l. Chet tili o'qitish metodikasini qayta qurish.

Qayta qurishda hozirgi davrda javob bermaydigan eski metod, yo'lusullarni chiqarib tashlab ta'lim-tarbiya berish, o'qitish tizimini mukammallashtirishdir. Chet tili metodikasining ilmiy saviyasini oshirishilg'or tajribalarni ommalashtirish, lingvistikani, psixologiyani, pedagogika, psixolingvistika yangiliklari asosida metodikani qayta qurishdir. Chet tili o'qitishni amaliy yo'nalishda bo'lishi uchun o'quvchi, talaba diqqatini chet tili ustida mustaqil ishlash va malaka ko'nikmasiga qaratish lozim. Chet tili o'quv predmetining tarbiyaviy tomonini oshirish, kuchaytirish, mazmunli, tarbiyaviy xarakterdagi matnlarni, ro'znoma, oynoma maqolalarini o'qitish orqali, ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy masalalarni tahlil qilish, matnning asosiy g'oyasini aniqlash orqali hamda sinfdan, oliy ta'limdan tashqari ishlar orqali amalga oshiriladi. Ular

talabalarni vatanparvarlik, baynalminalchilik, do'stlik ruhida tarbiyalaydi, dunyo qarashini kengaytiradi.

### **XULOSA**

Hozirgi davr talablarini amalga oshirishning yana bir yo'li talabalarga ortiqcha material berishni kamaytirish, o'quv jarayonini oddiy holatga keltirishdir. Bular yangi chet tillar dasturida hisobga olingan. O'qituvchi buning uchun talabalar tomonidan materialni har tomonlama amaliy egallash jihatidan yondashadi. Shu sababdan talaba ishlarinitil materiallarini produktiv (gapirish, fikrni yozma bayon qilish) va retseptiv (tinglab tushunish, o'qishda) o'zlashtirishga, talabalar potentsiallug'atini kengaytirishga qaratadi. Mustahkam bilim berishning asosi o'qitish jarayonining unumli umumlashgan, takomillashgan bo'lishidadir. Keyingi paytlarda yana optimallashtirishdan ham keng foydalanilmoqda. Optimallashtirish chet tili o'qitilayotgan vaziyat, sharoit, oliy o'quv yurtlari talabalari va ularning tanlagan sohalariga mos, oson, qulay metod, yo'l, usul, tizim, tamoyil, vosita, mashqlarni izlash va tanlay bilish, qo'llashdir. Optimallashtirish turli tipdagi oily o'quv yurtlari uchun o'ziga xosdir, chunki dars soatlari turlicha bo'ladi, talabalarining ona tili xususiyatlari ham turlicha ta'sir qiladi. Hozirgi davr kommunikativ malaka, kunikma chet tilida ma'lumot berish (gapirish, fikrni yozmabayon qilish orqali) va ma'lumot olish (o'qish, tinglab tushunish orqali) malaka va ko'nikmalarni yanada o'stirishni, ta'lim bilan tarbiyani birga olib borishni talab qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida/O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. O'.Hoshimov. I.Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi.- Toshkent-2003.
3. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil